

## O'ZBEK VA INGLIZ XALQ MAQOLLARINING O'XSHASHLIGI

**Shermamatova Sevara O'ktamjon qizi**

FarDU Ingliz tili va adabiyoti fakulteti o'qituvchisi

**Abdusalimova Shoxsanam Olimjon qizi**

FarDU Ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek xalq maqollarining o'rtasidagi o'xhashliklar haqida so'z boradi. Maqolada maqollarning bizning kundalik hayotimizda tutgan o'rni va ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Ingliz xalq maqollarining ma'nosi va o'zbek xalq maqollari orasidagi ekvivalenti keltirib o'tilgan. Ushbu maqolada vatan, do'stlik va sadoqat haqidagi maqollar misol qilib olingan.

**Kalit so'zlar:** maqol, vatan, millat, xalq, qadriyat, do'stlik, sadoqat, o'xhashlik.

### Kirish

O'zbek tili imkoniyatlari keng bo'lgan til. Tilning qimmati uning tarixi va xususiyatlari orqali belgilanadi. Shuningdek, maqollar ham tilning xususiyatlarini ya'ni, tilning boyligini, bo'yoq dorligini o'zida namoyon etadi. Shu o'rinda birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning quyidagi ta'riflarini yodga olish joiz hisoblanadi: "... o'zlikni anglash milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu millatning ruhidir"<sup>1</sup>. Adabiyotni o'rganish, anglash, tahlil qilish yoshlari tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Uning tilining ravon bo'lishida, so'z boyligining oshishida, fikrlash doirasining kengayishida, ma'naviy dunyoqarashining kengayishida muhim rol o'ynaydi.

Har bir millatning o'ziga xos o'z qadriyatlari va urf-odatlari mavjud. Shuningdek, maqollar ham millatning o'ziga xos qadriyati hisoblanadi. Dunyoda hech bir millat maqol, naql va matallarsiz bo'lmaydi. Bularsiz uning xalq og'zaki ijodi ham rivojlanmaydi. Xalq og'zaki ijodini o'rganish bugungi kunda juda ham muhim ahamiyatga ega. Maqollar og'zaki ijodning eng faol, eng ko'p tarqalgan va eng ko'p foydalaniladigan janri hisoblanadi. Maqollar o'z millatining milliy qadriyatlari, madaniyati, an'analari, urf-odatlari va xususiyatlarini o'zida aks ettirishi bilan ajralib turadi. Xalq o'zining hayotiy tajribalari asosida yuzagan kelgan fikrlarini, qarashlarini, ya'ni, xulosalarini, mulohazalarini qisqacha qilib maqollar orqali ifodalab bergen. Mavzu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, o'zbek xalq maqollari juda ham xilma-xil va rang-barangdir. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunasi hisoblangan maqollarda nazar tashlaydigan bo'lsak, har bir mavzuga doir maqollarni topishimiz mumkin. Maqollar xalqning, xalq og'zaki ijodining avloddan-avlodga o'tib kelayotgan boy ma'naviy me'rosi hisoblanadi. Maqollar nafaqat milliy qadriyatlar, urf-odatlari, balki xalqning o'zligini ko'rsatishi, xalqning tarixini ham aks ettirishi bilan insonlar hayotidagi o'rni kattadir. Maqollar juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Maqollar mantiqiy tugallangan fikr, chuqr mazmun va aniq shaklga ega.

<sup>1</sup> I. A. Karimov. Yuksak ma'naviyat – Yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008

### Adabiyotlar tahlili

Maqol arabcha “qavlum” terminidan olingen bo’lib, “so’z” degan ma’noni bildiradi. Shunday ekan maqol atamasiga hikmatli so’z deb ham qarashimiz mumkin. Maqol xalq og’zaki ijodining muhim janrlaridan biri hisoblanadi. Maqollar xalqning uzoq yillik tajribalari asosida yuzaga keladi. Ular xalqning madaniyatini ko’rsatishda muhim vositadir. Maqol yuzasidan ish olib borgan deyarli barcha olimlar maqollarda xalqning dunyoqarashi va hayotga bo’lgan munosabati aks ettirilishi to’g’risida aytib o’tganlar. Ular insonlarning ongini, fikrlash darajasini o’sishiga yordam beradi. Chunki maqollar xalqning uzoq yillik tajribalariga asoslangan fikrlarini badiiy jihatdan ifodalab beradi. Insonlar o’zлari eshitgan maqollari yuzasidan fikr yuritadilar va o’zлariga kerakli bo’lgan xulosaga, hayotiy tajribaga ega bo’ladilar. Maqollarda ifodalab berilgan fikr va mazmun juda ham keng qamrovli va ma’no-mazmunga boy bo’ladi. Folklorning muhim janrlaridan bo’lgan maqollar bugungi kunda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maqollar g’oyatda keng tarqalgan janr bo’lib, asrlar davomida og’izdan-og’izga ko’chib kelgan va xalqning qoniga singib ketgan qadriyatlardan biridir. Faqatgina so’zlashuv va og’zaki nutqda foydalanilibgina qolmasdan, turli tarixiy, badiiy va ilmiy adabiyotlarda ham keng foydalanilgan hamda bugungi kunda ham qo’llanilish jihatdan juda faoldir. Maqollarda xalqning tarixi, qadriyatlari va urf-odatlari ixcham, lo’nda, sermazmun va obrazli holatda ifodalab beriladi. Maqollar hayotiy tajribalar asosida yuzaga keladigan xulosalarning qisqacha mazmuni, bir so’z bilan aytganda tavsiyalari va hukmi hisoblanadi. Ko’p maqollar makon va zamon tanlamaydi (Bilagi zo’r birni yiqrar, Bilimi zo’r mingni). Maqollar xalq orasida “otalar so’zi” deb ham yuritiladi. Chunki ajdodlarimizning sinalgan tajribalari asosida yuzaga kelgan qisqacha fikrlari bizga maqol ko’rinishida saqlangan va yetib kelgan. Maqollarda pand-nasihat ruhi ustunlik qiladi. Maqollarning shaxsiy muallifi mavjud emas, shuning uchun ham ular xalq og’zaki ijodi deb yuritiladi. Ular xalq og’zaki ijodining durdona namunalaridir. Maqolga “O’zbek tilining izohli lug’ati”da quyidagicha ta’rif berilgan:- “Maqollar –hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega bo’lgan ixcham obrazli va hikmatli ibora, gap hisoblanadi”<sup>2</sup>. Yuqoridagi so’zlardan ko’rinib turibdiki, maqollar yuqorida aytib o’tkanimizdek uzoq yillar, asrlar mobaynida yuzaga kelgan hayotiy tajribalarning ixcham, ibratlari va pand-nasihat shakldagi ko’rinishidir. Maqollar tarix bilan ham bevosita bog’liqidir. Ular yaratilganidan so’ng ommalashishi uchun ham uzoq vaqt talab etgan. Bizning xalqimiz maqollarga juda ham boy. Hattoki qadimdayoq bizning ajdodlarimiz o’zlarining to’liq pand-nasihat ruhidagi asarlarini ommaga havola etganlar. Ulkan tilshunos olim, folklorshunos va etnograf Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’ot at-turk” asari yaqqol misol bo’la oladi. Mahmud Koshg’ariy yuqoridagi asarida turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400ga yaqin maqol va matallarni keltirib, izohlab o’tadi. Ularning ba’zilari bugungi kunda iste’moldan chiqib ketgan, ba’zilari ayrim o’zgarishlarga uchragan va foydalanib kelinmoqda, ba’zilari esa o’z holaticha bugungi kunda ham iste’molda. Mahmud Koshg’ariy o’zining bu asari orqali maqol janrining uzoq tarixga ega ekanligini ko’rsatib bergen.

Maqollar o’z va ko’chma ma’nolarga ega. Maqollardan nazarda tutilgan fikr hayvonlar obrazi orqali emas, to’g’ridan to’g’ri insonlarga qaratilgan bo’lsa o’z ma’noli bo’ladi. Masalan: “Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda”. Maqollardagi fikr hayvonlar, tabiat hodisalari va shunga o’xshash boshqa narsalar orqali ifodalansa ko’chma ma’noli bo’ladi. Masalan: “Shamol bo’lmasa, daraxtning uchi qimirlamas”.

Maqol janri haqida so’z ketganda shuni ham e’tiborga olish kerakki, 80-yillarning oxirida O’zbekiston Fanlar Akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyoti institutining ishchi xodimlari tomonidan alifbo tartibida joylangan o’n uch mingga yaqin maqollar alohida kitob holida nashr qilindi. Bu ham o’zbek xalqi madaniy me’rosining naqadar boy va ulkanligini isbotlab bergen. Shuni ham aytib o’tish kerakki, bunday bebaho me’rosga dunyodagi barcha xalqlar ham erisha olmaydi. Biz o’zbek xalqi bu bilan bemalol faxrlansak arziydi. Chunki xalqning qalbidan munosib

<sup>2</sup>“ O’zbek tilining izohli lug’ati” 2 tomlik, 1-tom 1982-yil 456-bet.

o’rin egallaydigan maqolning yaratilishi uchun esa o’nlab, hattoki, yuzlab yillar kerak bo’ladi. Bugungi kunda qiyosiy tilshunoslik orqali maqollarni chuqr o’rganilmoqda va buning natijasida fanning yangi jabhalari namoyon bo’lmoqda.

O’zbek xalq maqollari singari ingliz xalq maqollari ham uzoq yillik tarixga ega. Ular ham ingliz xalqining qadriyat va an’analalarini o’zida mujassam etgan. Ular xalq og’zaki ijodining eng boy va sara namunalardan biri hisoblanadi. Xuddi o’zbek xalq maqollari singari ingliz xalq maqollari singari turli xil badiiy va o’xshatish vositalardan foydalanish kuzatiladi. Badiiy vositalardan foydalanish maqollarni ta’sirchanligini yanada oshiradi va hattoki ma’no-mazmunini ham boyitadi. Ingliz xalq maqollari ustida olib borilgan izlanishlarda Mayderning xizmatlari katta. Chunki u juda ko’plab izlanishlar olib borgan va asarlar ham yaratgan. Ingliz xalqining mashhur folklorshunosi hamda professor Mayder maqolga quyidagicha ta’riflagan: “Proverbs are used in a wide range of situations and no limits to the use of the proverb. They can be used to: “strengthen our arguments, express certain generalizations, influence or manipulate other people, rationalize our own shortcomings, question certain behavioral patterns, satirize social ills, poke fun at ridiculous situations”.

Ya’ni: “Maqollar juda keng ko’lamda qo’llanilib ularni qo’llashda chegara yo’q. Maqollar bizning dalillarimizni mustahkamlash, umumiy va aniq fikrlarimizni ifodalash, boshqa insonlarni boshqarish yoki ularga ta’sir o’tkazish, jamiyatdagi illatlarni ifodalash”.

Jozef Reymondning maqol haqida quyidagi fikrlari mavjud: “Proverbs are not only melodic and witty, possessed with rhythm and imagery; proverbs also reflect “pattern of thought”. Ya’ni “Maqollar ixcham va ritmik tuzilgan bo’lib, faqat donolikni ifodalab qolmay, inson o’y-fikrlarini ham aks ettiradi”. J. Reymond yuqorida so’zlari bilan maqollar nafaqat xalqning donoligini, balki uning hayolidan o’tadigan o’y-fikrlarini ham aks ettirishini ta’kidlab o’tmoqda.

O’zbek va ingliz xalq maqollari o’rtasida mazmun jihatdan bir-biriga o’xhash maqollarni topishimiz mumkin. Biz ikki yoki undan ortiq tildagi maqollarni qiyoslayotganimizda uni so’zma-so’z tarjima qilishimizning o’zi yetarli bo’lmaydi. Chunki maqollarning so’zma-so’z tarjima qilingan mazmuni boshqa tilda mavjud emas. So’zma-so’z tarjima qilinganda maqoldan ko’zlangan asosiy ma’noni noto’g’ri tushunishga sabab bo’lishi mumkin. Shuning uchun ham biz maqollarni to’g’ri tarjima qilishimiz, undan ko’zlangan ma’noni anglashimiz va ularning o’zga tildagi ekvivalentini ham to’g’ri tanlay olishimiz kerak. Deyarli barcha maqollarning ekvivalentlari mavjud. Masalan, vatan, do’stlik, oila, sadoqat kabi tushunchalarni oladigan bo’lsak, bu tushunchalar har bir xalq va millatlar uchun xos bo’lgan tushunchalardir. Buning sababi xalq va millati boshqa bo’lgani bilan lekin insoniy xislatlar barcha insoniyat uchun xosligidir. Biz bu ikkala tildagi maqollarni qiyoslab o’rganish orqali, har ikkala millatning tarixiy, madaniy va milliy urf-odatlari, an’analari va kamchiliklarini tilda qay darajada ifoda etib bera olishini, o’zaro o’xhash va farqli jihatlarini bilib olishimiz mumkin.

Misol: Every bird likes its own nest (Har bir qush o’z inini sevadi).

O’zbekcha ekvivalenti: Bulbul chamanni sevar, Odam – Vatanni.

Muhokama

- 1) As the old cock crows, so doth the young. Ingliz tilidagi bu maqolni o’zbek tiliga so’zma-so’z tarjima qiladigan bo’lsak quyidagi ma’no kelib chiqadi. “Yosh xo’roz qari xo’roz singari qichqiradi”. Bu bilan yoshlar albatta kattalardan o’rnak oladi, ularga qarab harakat qiladi, kattalar qilgan ishni qiladi demoqchi. Bunday xislat har bir xalqda mavjud. Albatta har bir farzand birinchi navbatda ota-onasidan o’rnak oladi va ularga o’xhashga harakat qiladi. Bu maqolning o’zbek tilidagi ekvivalenti quyidagichadir: “Qush uyasida ko’rganini qiladi”.
- 2) The dog bark, but caravan goes on. So’zma-so’z tarjimasi “It huradi, ammo karvon davom etadi”. Ushbu maqolni turlicha talqin qilish mumkin. Ushbu maqol insonning o’z maqsadlarida sobit turishini, o’zgalarning ig’volariga e’tibor qaratmasdan doim oldinga intilishini va maqsadlari sari

harakat qilishini bildiradi. Itlarning hurishi-turli ig'vo va mish-mishlarni, karvonning yo'lida davom etishi esa insonning o'z maqsadlari tomon intilishini bildiradi. O'zbek tilidagi ekvivalenti esa "It hurar, Karvon o'tar".

- 3) Give as good as one gets. Ma'nosi: Birovdan olganing kabi berasan. Ya'ni inson qanday harakat qilsa, shunga munosib natijaga erishishini anglatadi. O'zbek tilidagi ekvivalenti esa "Nimani eksang, shuni o'rasan".
- 4) Dog does not eat dog. Ma'nosi: It itni yemaydi. Bu maqolda, inson o'z yaqinlariga yomon ishlarni ravo ko'rmasligi, har doim do'stlari, yaqinlari bilan birga bo'lishi kerakligini nazarda tutilgan. Ularga sadoqatli bo'lishi kerakli tasvirlangan. O'zbekcha ekvivalenti: "Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi".

### Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, maqollar tillarning juda ko'p qismini tashkil etadi. Ular bir-biridan tuzilish va shakl jihatdan farq qilgani bilan, lekin maqollarda nazarda tutilgan ma'no, ulardan kelib chiqadigan xulosa va ularning tarbiyaviy jihatni tomonidan maqsadi bir xildir. Yuqorida aylib o'tganimdek, insoniy va vatanparvarlik fazilatlari yer yuzidagi barcha insoniyat olami uchun xos bo'lgan xislatlardir. Bir tildagi maqolning boshqa tildagi ekvivalentini albatta topish mumkin. Maqollar og'zaki nutqda ham eng faol qo'llaniladigan xalq og'zaki ijodi janrining biridir. Nutqda ko'proq maqol qo'llagan insonning nutqi ham semazmun va ma'noli bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek xalq maqollari. 2014. N: Adabiyot uchqunlari.
2. Meider. W. International Proverb Scholarship. New York: Garland Publishing. 1993. P.27-63.
3. Ahmedova Ugiljon Kuronboyevna. 2014. N: Urganch.
4. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T: 2000. -156b
5. I. A. Karimov. Yuksak ma'naviyat – Yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat 2008.
6. Mirzayev T. "O'zbek xalq maqollari". – Toshkent: 2003.
7. Madayev O. Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. –T: Sharq. 2010.
8. Shermamatova, S., & Aliyeva, M. (2023). YANGI SO'Z YODLASHNING SAMARALI USULLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 970-976.
9. Shermamatova, S., Sobirova, N., & Nazirova, Z. (2023). O 'ZBEK TILIDA MA'NO KO'CHISH USULLARI: METAFORA, METANOMIYA, SINEKDOXA, VAZIFADOSHLIK. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 960-964.
10. Shermamatova, S., & Abdurakhmonova, K. (2023). ENGLISH IDIOMS AND THEIR MEANINGS. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 946-952.
11. Shermamatova, S., & Malikova, G. (2023). TEACHING ENGLISH TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH TPR METHOD. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 252-257.
12. Shermamatova, S., & Karimova, D. (2023). XX ASR O 'ZBEK YOZUVCHILARI IJODIDA ONA OBRAZI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 506-509.

13. Shermamatova, S., & Mamadaliyeva, Y. (2023). O'ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA O'ZBEK TILIDAGI EKVIVALENTLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 488-500.
14. Shermamatova, S., & Yusupova, S. (2023). HISTORY OF LANGUAGES BETWEEN ENGLISH AND UZBEK COUNTRIES. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 310-317.
15. Shermamatova, S., & Abdullayeva, Z. (2023). TEACHING ENGLISH THROUGH THE DIRECT METHOD. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 238-242.
16. Shermamatova, S., & Nurmuxammedova, D. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SINONIM SO 'ZLARINING QO 'LLANILISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 262-266.